

6-1-2018

FACTORS INFLUENCING THE ECONOMIC AND FINANCIAL SITUATION OF PENSION

B. Nurmukhamedova
Tashkent Financial institute

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

Recommended Citation

Nurmukhamedova, B. (2018) "FACTORS INFLUENCING THE ECONOMIC AND FINANCIAL SITUATION OF PENSION," *International Finance and Accounting*: Vol. 2018 : Iss. 3 , Article 6.
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2018/iss3/6>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

**Nurmuxamedova B.I. – TMI,
dotsent v.b.**

PENSIYA TA'MINOTINING IQTISODIY VA MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Maqolada pensiya ta'minotining holatiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan va uning iqtisodiy va moliyaviy holatini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: keksalarni ijtimoiy himoya qilish; ijtimoiy ta'minot olish huquqi; minimal ijtimoiy kafolatlar; pensiya ta'minoti; demografik vaziyat; aholining bandligi ko'rsatkichlari; demografik keksayish; Pensiya jamg'armasi; pensiyaga chiqish yoshi; pensiya to'lovlari; imtiyozli pensiyalar; muqobil pensiya ta'minoti; nodavlat va xususiy pensiya fondlari.

В статье изучены факторы, влияющие на состояние пенсионного обеспечения и разработаны рекомендации по улучшению его экономического и финансового состояния.

Ключевые слова: социальная защита престарелых; право на социальное обеспечение; минимальные социальные гарантии; пенсионное обеспечение; демографическая ситуация, показатели занятости населения, демографическое старение; Пенсионный фонд; пенсионный возраст; пенсионные выплаты; льготные пенсии; альтернативное пенсионное обеспечение; негосударственные и частные пенсионные фонды.

In the article the factors that influence the state of pension provision were studied and developed recommendations for improving its economic and financial condition.

Keywords: social protection of the elderly; the right to social welfare; minimum social guarantees; pension provision; demographic situation, employment indicators, demographic aging; Pension Fund; retirement age; pension payments; preferential pensions; alternative pension provision; private pension funds.

O'zbekiston Respublikasi inson manfaatlari, huquq va erkinliklari yuksak qadriyat bo'lgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidan izchil rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda jamiyatning ma'naviy yangilanishi uchun, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jahon hamjamiyatiga uyg'unlashish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-Assambleyasida so'zlagan nutqida: “Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad – “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan oddiy va

aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat” [1] ekanligini alohida ta'kidladilar. Haqiqatan ham, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari har taraflama qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Ushbu holat jahon hamjamiyati tomonidan ham alohida e'tirof etilmoqda.

Xalqaro miqyosda aholini, shu jumladan keksalarni ijtimoiy himoya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” tashkil etadi. Jumladan, ushbu hujjatning 25-moddasida belgilanishicha, “Har bir inson o'zi hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan, kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa holatlarda ta'minlanish huquqiga ega” [2].

O'zbekiston Respublikasida aholini, shu jumladan, keksalarni ijtimoiy himoya qilish sohasida amalga oshirib kelinayotgan ishlarning barchasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan ijtimoiy ta'minot olish huquqini ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Masalan, Konstitutsiyaning 39-moddasida “Har kim qariganda, mehnatga layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega” [3], deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida aholi sonining o'zgarish darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi (1-rasm):



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi sonining o'zgarish dinamikasi[4] (yil boshiga, ming kishi)

Yuqorida nomlari tilga olingan hujjatlarga muvofiq, keksalar hayotini minimal ijtimoiy kafolatlar darajasida ta'minlash mamlakatlarning rivojlanganlik darajasidan qat'iy nazar, ijtimoiy davlatning vazifasi hisoblanib, ijtimoiy kafolatlar tizimi shakllanishining qonuniy, iqtisodiy va moliyaviy jihatlari esa alohida dolzarblik kasb etadi hamda bu borada olib boriladigan tadqiqotlarning dolzarbligini belgilab beradi.

Pensiya ta'minoti aholining ishonchli va kafolatlangan ijtimoiy himoyasida muhim va markaziy o'rinni egallaydi. Pensiya ta'minotining holatiga esa

mamlakatdagi demografik vaziyat va uning yaqin va oʻrta istiqboldagi dinamikasi jiddiy taʼsir koʻrsatadi. Oʻzbekiston Respublikasi aholisining soni 2017-yilning 1-yanvar holatiga koʻra 32 million 120,5 ming kishini tashkil qilgan va 2016-yil boshiga nisbatan 545,2 ming nafarga koʻpaygan hamda bu 1,7 foizlik oʻsishni koʻrsatgan boʻlsa, 2018-yilning 1-yanvar holatiga Oʻzbekiston aholisi soni 32 million 653,9 ming kishini tashkil etib, 2017 yilda 533,4 ming kishiga yoki 1,7 foizga oʻsgan¹.

Rasmdagi diagrammadan koʻrinib turganidek, mamlakatimiz aholisi soni yildan-yilga oshib bormoqda. Bunday oʻzgarishlar esa aholiga munosib yashash va ishlash sharoitlarini taʼminlash, ijtimoiy xizmatlar koʻlami va sifatini oshirish, aholi salomatligini muhofaza qilish, taʼlim olish imkoniyatlarini yaratish, uy-joy bilan taʼminlash, kommunal va maishiy xizmatlar miqdori va sifatini oshirish kabi vazifalar bilan bir qatorda, mamlakat fuqarolarining ijtimoiy taʼminoti va ijtimoiy himoyasini yaxshilash masalalarini ham koʻndalang qoʻyadi.

Pensiya taʼminotining iqtisodiy va moliyaviy holatini koʻp jihatdan aholining bandligi koʻrsatkichlari belgilab beradi. Aholi bandligi koʻrsatkichlari qancha oshsa, iqtisodiyotdagi va ijtimoiy hayotdagi koʻpgina ijtimoiy muammolarni ijobiy tomonga hal qilish uchun iqtisodiy imkoniyatlar koʻpayadi. Shu jumladan, iqtisodiyotdagi band aholi muayyan ish hajmini bajargani uchun oylik maosh yoki ish haqi oladi, ish haqidan esa pensiya taʼminotining asosiy moliyaviy manbasi boʻlgan Pensiya jamgʻarmasiga muntazam ravishda sugʻurta badali toʻlaydi, ish haqlarining darajasi oshib borgan sayin Pensiya jamgʻarmasiga tushumlar ham ortadi, bu esa uning moliyaviy barqarorligini taʼminlashda muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Albatta, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish bevosita pensiyalarning pensionerlarga oʻz vaqtida va toʻliq hajmda toʻlanish masalasini ham qamrab oladi. Pensiyalarning oʻz vaqtida va toʻliq hajmda toʻlanishi, avvalo, Pensiya jamgʻarmasining moliyaviy barqarorligiga bogʻliq boʻladi. Bir vaqtning oʻzida, Pensiya jamgʻarmasining moliyaviy barqarorligi pensiya taʼminoti boshqaruvining samarali tashkil etilishiga bogʻliq.


Davlat pensiya fondlari barqarorligini taʼminlash makroiqtisodiy nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega boʻlib, bu borada AQShlik olim Jun Pengning quyidagi fikrlari ahamiyatlidir: “Pensiya taʼminoti boshqaruvi, nafaqat, pensiya taʼminotining moliyaviy barqarorligiga, balki butun davlat sektorining moliyaviy barqarorligiga taʼsir koʻrsatadi, shu sababli pensiya taʼminoti boshqaruvi davlat pensiya tizimiga pensiya badalini toʻlovchi va kelgusida undan hukumat tomonidan kafolatlangan pensiya toʻlovlarini oluvchi har bir shaxsga dahldor boʻlmogʻi lozim”[5].

Yer yuzida koʻpgina mamlakatlarni qamrab olgan jamiyatning qarishi oʻz ahamiyatiga koʻra, allaqachon milliy chegaralar doirasidan chiqib ketgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining maʼlumotlariga koʻra, 2015-yilda dunyo aholisi tarkibida 60 yosh va undan katta yoshdagi aholining ulushi 12,0 foizni (900 mln. kishini) tashkil etgan. 2020-yilga borganda 60 yosh va undan katta yoshdagi insonlarning soni birinchi marta 5 yoshdan kichik insonlar sonidan ortib ketadi. 2050-yilga kelib Yer

¹ Manba: <http://stat.uz/statinfo/demograficheskie-dannye>

yuzida yoshi 60 dan oshgan va undan katta yoshdagilar soni 22 foizni (2,0 mlrd. kishini) tashkil etadi².

Aholining umumiy qarib borishidan tashqari, keksa aholi o‘rtasida ham katta yoshdagilarning ulushi ortib bormoqda. Hisob-kitoblarga qaraganda, 80 yoshdan katta bo‘lgan aholi sonining o‘shish sur‘ati nafaqat umumiy aholining o‘shish sur‘atlaridan, balki 60 yosh va undan katta aholining o‘shish sur‘atlaridan ham yuqoriroq bo‘lmoqda. 60 yoshdan katta bo‘lgan aholining tarkibida 80 yoshdan katta aholining ulushi 1950-yildagi 7 foizdan 2012-yildagi 14 foizga ko‘tarildi, 2050-yilga borib esa o‘rtacha bashoratlarga ko‘ra 20 foizga yetishi kutilmoqda.



2-rasm. 60 yosh va undan yuqori hamda 80 yosh va undan yuqori aholining ulushi (aholi umumiy soniga nisbatan foizda) va qarish indeksi (60 yosh va undan yuqori 100 kishining 15 yoshgacha bo‘lgan 100 kishiga nisbati), 1950-2100-yillar, dunyo bo‘yicha³.

80 yosh va undan katta yoshdagi aholining jami aholi sonidagi ulushi o‘tgan asrda 1 foizni ham tashkil qilmagan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatkich 2 foizni tashkil qiladi, 2050-yilga borib esa bu ko‘rsatkichning 4,3 foizgacha ko‘tarilishi bashorat qilinmoqda.

Dunyo mamlakatlari ichida 60 yosh va undan katta yoshdagi aholining ulushi 2012-yilda Birlashgan Arab Amirliklaridagi 1 foizdan Yaponiyadagi 32 foizgacha bo‘lgan. Yaponiyadan tashqari, keksa aholisining ko‘pligi jihatidan Italiya va Germaniya (27 foizdan), Finlyandiya (26 foiz), Gretsiya, Bolgariya va Shvetsiya (27


² ВОЗ: число пожилых людей в мире к 2050 году превысит 2 млрд. <http://tass.ru/obshchestvo>.

³ Manba: <http://demoscope.ru/weekly/2012/0531/barom02.php>

foizdan) kabi mamlakatlar ajralib turadi. Yana 27 ta Yevropa mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 20 foizdan 24 foizgachani tashkil qiladi.

Aholining qarishi bo‘yicha rivojlangan va past darajada rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘rsatkichlari bir-biridan farq qiladi.

Past darajadagi rivojlanishda bo‘lgan mamlakatlarda bugungi kunda 60 yoshdan oshgan aholisining ulushi hanuzgacha past bo‘lib, 9 foizni tashkil etadi, ammo ularda ham qarish jarayoni yuqori sur‘atga chiqadi va asrimizning o‘rtalariga kelib rivojlangan mamlakatlar ko‘rsatkichlariga chiqib oladi (20 foiz). Buning natijasida o‘zi shundoq ham past darajadagi rivojlanishga ega bo‘lgan davlatlar aholining qarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning past sur‘atlarida moslashishlariga to‘g‘ri keladi.



1 - 60 yosh va undan kattalar; 2 - 80 yosh va undan kattalar; 3 - Qarish indeksi (o‘ngda)

3-rasm. 60 yosh va undan yuqori hamda 80 yosh va undan yuqori aholining ulushi (aholi umumiy soniga nisbatan foizda) va qarish indeksi (60 yosh va undan yuqori 100 kishining 15 yoshgacha bo‘lgan 100 kishiga nisbati), 1950-2100-yillar, rivojlangan va past rivojlangan mamlakatlarda⁴.

Ushbu tahlillar shundan dalolat beradiki, keksa yoshdagi kishilarning soni va aholi sonidagi ulushining ortib borishi ular ehtiyojlari va muammolariga alohida ahamiyat berishni talab etadi. Shu bilan birga, keksa yoshdagi ko‘pchilik insonlar 60 yoshdan keyin ham, agar ular uchun yetarli darajada iqtisodiy va huquqiy sharoitlar yaratib berilsa, jamiyat faoliyatida faol ishtirok eta oladilar. Shu sababli ko‘pchilik davlatlar hukumatlari bu borada muayyan strategiya va harakat yo‘nalishlarini aniq belgilab olishga majbur bo‘ldilar, bu yo‘nalishlar ijtimoiy soha, aholini ijtimoiy

⁴ Manba: <http://demoscope.ru/weekly/2012/0531/barom02.php>

himoya qilish, ijtimoiy ta’minot, tibbiyot sug’urtasi kabilarda amalga oshirilishi ko’zlangan.

BMT ko’magida “HelpAge International” xalqaro hayriya tashkiloti tomonidan tuzilgan “Global AgeWatch Index 2015” reytingining natijalariga ko’ra, O’zbekistonda keksalarning soni aholi umumiy sonining 6,7 foizni tashkil etadi. 2030-yilga kelib ushbu ko’rsatkich – 11,6, 2050-yilda esa 19,4 foizga yetadi⁵.

60 va undan katta yoshdagi shaxslar ulushining muttasil ortib borishi bilan katta yoshdagi kishilarning pensiya ta’minoti, shuningdek ularga yordam ko’rsatishga yo’naltirilgan loyiha va dasturlarni moliyalashtirish muammosi paydo bo’lishi tabiiy.

Biroq, prognozlarining ko’rsatishicha, istiqbolda O’zbekistondagi demografik jarayonlar intensiv tarzda o’zgaradi va respublika aholisining keksayishi darajasi nisbatan tezlashadi.

Demografik keksayish shu jarayonga yuz tutgan mintaqalar mutasaddilari va davlatlar rahbarlarini ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish va rivojlantirish istiqboliga sifat jihatdan yangicha munosabatda bo’lishga qonuniy majbur qilmoqda.

Aholi tarkibida katta yoshdagilar ulushining ortib borishi transport, savdo, sog’liqni saqlash, pensiya ta’minoti va boshqa tashkilotlar faoliyatiga o’zgartirishlar kiritishga majbur qilmoqda. Ya’ni, mahalliy boshqaruv tizimini jamiyatning yosh tarkibi o’zgarishiga moslashtirish muammosini hal etishga to’g’ri kelmoqda. Bu muammoning dolzarbligi nihoyatda ulkan va u juda ko’p yo’nalishlar – ishlab chiqarish jarayonlarini mehnat resurslari hisobiga ta’minlash zaruratidan boshlab keksa kishilarga turar joy-kommunal xo’jaligi xizmatlari, transport xarajatlari va boshqa masalalarda imtiyozlar berishgacha, ijtimoiy muhofaza choralariidan tortib muntazam va uzluksiz pensiya va nafaqalar bilan ta’minlab borishgacha bo’lgan tizimni shakllantirish zarurati bilan bog’liq.

Shuni e’tirof etish kerakki, keksalarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlashga O’zbekiston hukumati tomonidan katta ahamiyat berilgan: O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga “Voyaga etmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg’iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir” va “Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o’z ota-onalari haqida g’amxo’rlik qilishga majburdirlar”[3] kabi moddalar kiritilgan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq “Nuroni” va “Mahalla” jamg’armalari tashkil etilgan, yolg’iz keksalarga uy sharoitida ijtimoiy xizmat ko’rsatish tizimi joriy etilgan.

O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasida ham “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to’rtinchi yo’nalish “fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, aholining muhtoj qatlamlariga ko’rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog’liqni saqlash sohasini isloh qilish”[6] chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Harakatlar strategiyasi ijtimoiy soha vakillari va barcha mutasaddi rahbarlar oldiga qo’yilgan ulkan vazifalar davlat pensiya ta’minoti tizimini ham takomillashtirib borish, uni jahon andozalariga mos keladigan, iqtisodiy jihatdan

⁵ Global AgeWatch Index 2015 // www.helpage.org/global-agewatch

maqbul va moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lgan, tashkiliy jihatdan mukammal va huquqiy jihatdan mustahkam bo‘lgan tizim sifatida yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

Fuqarolarning davlat tomonidan kafolatlangan va ishonchli ijtimoiy va pensiya ta‘minotining moliyaviy asosini Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tashkil qiladi, iqtisodiy asosini esa iqtisodiyot tarmoqlarida, uning real sektorida yaratilayotgan qiymat, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, uning tarkibiy qismi bo‘lgan mehnat haqi kabilar tashkil qiladi, bu iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ijobiy dinamikasi Pensiya jamg‘armasining ham moliyaviy barqarorlik darajasini belgilab beradi.

Mustaqillik yillarida pensiya ta‘minotining davlat pensiyalariga miqobil bo‘lgan, fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lari hisobidan shakllanadigan jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti yaratildi, bu tizim ish beruvchilarning pensiya yoshiga etgan xodimlarining moddiy ahvolini yaxshilash, shu asosida pensionerlarga amaldagi pensiya to‘lovlariga qo‘shimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish, keksalik chog‘ida fuqaroning o‘z farovonligi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida joriy qilindi.

Pensiya ta‘minoti bo‘yicha MDH mamlakatlari, xususan O‘zbekiston pensiya tizimidagi asosiy muammolar pensiyaga chiqish yoshining ertaligi, Pensiya jamg‘armasiga daromadlarning to‘liq tushmasligi, pensiya to‘lovlari uchun xarajatlarning kattaligi, imtiyozli pensiyalarning mavjudligi bilan bog‘liq, shuningdek, aholining qarish jarayoni pensiya ta‘minoti uchun qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini aniqlash zarurligini, davlat pensiya tizimiga qo‘shimcha ravishda muqobil pensiya ta‘minotining xorijiy davlatlarda mavjud bo‘lgan shakli – nodavlat va xususiy pensiya fondlarini shakllantirishni taqozo etadi. Xorijiy mamlakatlarda pensiya ta‘minoti bilan shug‘ullanadigan nodavlat xususiy pensiya fondlari ma‘lum darajadagi muvaffaqiyat bilan amal qilib kelmoqda. Bizning mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarining iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, korporativ pensiya ta‘minotini shakllantirish, uning tashkiliy va huquqiy asoslarini yaratish, tajriba qilish va pilot loyihalar asosida keng joriy qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217-A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan // www.insonhuquqlari.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 16-son, 176-modda.
4. O'zbekiston aholisi-2017. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Statistik to'plam. 18-bet. 2017-2018-yillar ko'rsatkichlari prognozlari <http://stat.uz/statinfo/demograficheskie-dannye> manbadan olingan.
5. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. Auerbach Publications. USA, 2008.P.49
6. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.